

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

Hikoyadan qanday ibrat oldingiz?

\*Fikrni davom ettirishadi: *Fayzli ko'chalar...*

#### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

Hikoyaning mazmunini so'zlab bering. Tasavvuringizdagi fayzli, gulzor ko'chaning rasmini chizing.

### **6-Mavzu: Odob-salomdan boshlanadi**

#### **Darsning maqsadi:**

- Shuhrat Rahimovning "Salomlashish odobi" she'ri bilan tanishtirish;
- salomlashish qoidalari bilan tanishtirish;
- hozirjavoblik qobiliyatini shakllantirish.

**Tayanch so'zlar:** salomlashish odobi, assalomu alaykum, tabassum.

**Didaktik materiallar:** mavzuga oid rasmlar.

#### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)**

Darsni tashkil qilish.

**Faollashtiruvchi mashq:** *So'zlar ishtirokida bitta gap tuzing.*

*Qo'l, tabassum, salom*

#### **II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)**

"Bizning ko'cha" hikoyasining mazmuni so'zlab beriladi. Fayzli, gulzor ko'chaning rasmi ko'rildi.

#### **III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)**

**Amaliy topshiriq:** Mashq daftaridagi pufakchalardagi quvnoq harflardan so'z hosil qiling. (Assalomu alaykum)

#### **Muhokama uchun savollar.**

1. Sizda qanday so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'zni qachon aytamiz?
3. Bu so'zni har doim to'g'ri talaffuz qilamizmi?

#### **Mavzuni tushuntirish.**

Suhbat uyushtiriladi.

*Odob “Assalomu alaykum” so‘zidan boshlanadi. “Assalomu alaykum” so‘zi – sizga tinchlik, salomatlik tilayman degan ma’noni bildiradi. Kichik yoshdagilar yoshi ulug’larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o’tirganga, ozchilik ko’pchilikka salom beradi. Qo’limizni ko’ksimizga qo’yib, tabassum bilan salom berish odobdandir.*

### **Matn ustida ishslash.**

Shuhrat Rahimovning “Salomlashish odobi” she’ri o’qitiladi. She’r yuzas idan savollarga javob beriladi.

1. Odob nimadan boshlanadi deb o’ylaysiz?
2. Salom qay holatda beriladi?
3. “Assalomu alaykum” so‘zining ma’nosi nima?
4. Salomlashish qoidalari bilasizmi?

She’r matnidagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o’tkaziladi.

**g‘avg‘o** – qiy chuv, shovqin, betartib ovozlar.

**chaman** – gulshan, gulzor, gul ko‘p joy.

**ziynat** – bezak, husn, ko‘rk.

**axloq** – muomala, xatti-harakat odobi.

**minbar** – baland kursi.

**“Ifodali o‘qish”** mashqi.

She’rni ifodali o‘qish mashqi o’tkaziladi. O‘qituvchi she’rni ifodali o‘qishni boshlaydi. O‘quvchilar yarim ovozda o‘qib o‘qituvchiga jo‘r bo‘ladi.

**“Qofiyadoshini top”** mashqi.

She’rdagi qofiyadosh so‘zlar og‘zaki aniqlanadi, juftlab aytildi: *minbari-gavhari, kalomdir-salomdir, ma’nosi-g‘avg‘osi, silaydi-tilaydi...*

### **Mashq daftari bilan ishslash.**

Daftardagi topshiriqlar bajariladi.

**“Adashgan harflar”** mashqi.

So‘zdagi adashgan harflardan to‘rtlik hosil qilinadi va yoziladi.

O‘quvchilarga boshqa davlatlarda salomlashish odatlari haqida ma’lumot berish tavsiya qilinadi.

**Bu qiziq!**

*Filippinliklarda salomlashishning qadimiyligi an’anasi saqlanib qolingan. Uchrashganda, yoshi yoki maqomi jihatdan kichikroq bo‘lgan odam, boshqa odamning o‘ng qo’lini olib, peshonasiga tekkizishi kerak.*

*Yaponiyada, Osiyoning boshqa ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, salomlashish muloyim ta'zim sifatida qabul qilinadi.*

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

*Darsda nimalarni bilib oldingiz? Nega odob salomdan boshlanadi deyiladi?*

\*Fikrni davom ettirishadi: *Biz bugun darsda...*

#### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

She'rni ifodali yod oling. Boshqa davlatlardagi salomlashish odatlari haqida ma'lumot to'plang.